ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24366106

Bolalarda milliy ruhda emotsional his tuyg‘ularni shakllantirishda ro‘lli o‘yinlarning ahamiyati

Jabborova Marifat Qodiraliyevna –
Farg‘ona davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-5114-8046

Meliboyeva Gulsanam Inomjon qizi –
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy ruhdagi emotsional his-tuyg‘ularni shakllantirishda ro‘lli o‘yinlarning pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ro‘lli o‘yinlarning milliy qadriyatlarni hissiy qabul qilish vositasi sifatidagi funksiyasi, ertak va milliy syujetlar asosidagi sahnalashtirish orqali bolalarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va boshqa millatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ro‘lli o‘yinlar bolaning emotsional kechinmalarini milliy qadriyatlar kontekstida tashkil etishning samarali vositasi bo‘lib, rollarni taqsimlashda bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish tarbiyaviy samaradorlikni oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *ro‘lli o‘yin, milliy ruh, emotsional his-tuyg‘ular, milliy qadriyatlar, empatiya.*

Значение ролевых игр в формировании эмоциональных чувств у детей в национальном духе

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогико-психологические возможности ролевых игр в формировании эмоциональных чувств в национальном духе у детей дошкольного возраста. В исследовании рассматривается функция ролевых игр как средства эмоционального восприятия национальных ценностей, механизмы формирования чувств патриотизма, национальной гордости и уважения к другим нациям посредством инсценировки на основе сказок и национальных сюжетов. Результаты показывают, что ролевые игры являются эффективным средством организации эмоциональных переживаний ребенка в контексте национальных ценностей, а учет индивидуальных особенностей ребенка при распределении ролей повышает воспитательную эффективность.*

Ключевые слова: *ролевая игра, национальный дух, эмоциональные чувства, национальные ценности, дошкольное образование, патриотизм, эмпатия.*

The role of role-playing games in fostering children's emotional development in the spirit of national values

Annotation. *This article analyzes the pedagogical and psychological possibilities of role-playing games in the formation of emotional feelings in the national spirit in preschool children. The study examines the function of role-playing games as a means of emotional perception of national values, and the mechanisms of forming feelings of patriotism, national pride, and respect for other nations through dramatization based on fairy tales and national plots. The results show that role-playing games are an effective means of organizing a child's emotional experiences in the context of national values, and taking into account the child's individual characteristics when distributing roles increases educational effectiveness.*

Keywords: *role-playing game, national spirit, emotional feelings, national values, preschool education, patriotism, empathy.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasini isloh qilish, uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son Farmonida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni "o‘yinga yo‘naltirilgan ta'lim asosida milliy g‘urur va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash" masalasi alohida ta'kidlangan . Bu esa bolalik davrida milliy qadriyatlarni hissiy qabul qilish jarayonini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish zaruratini ko‘rsatadi. Inson hayotining ilk davri uning shaxsiy qadriyatlari va emotsional dunyoqarshi poydevori qo‘yiladigan eng ma'suliyatli bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola atrof-muhitni, jumladan, milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni ham hissiy qabul qilish orqali o‘zlashtiradi. O‘yin faoliyati, xususan, ro‘lli o‘yinlar bolaning bu jarayonda faol ishtirokchi bo‘lishini ta'minlaydi. Rol o‘ynash orqali bola nafaqat ijtimoiy rollarni sinab ko‘radi, balki milliy muloqot madaniyati va qadriyatlariga xos hissiy munosabatni ham o‘zlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2026 yil 28-yanvardagi 34-sonli qarori "Milliy tarbiya modeli" ni ishlab chiqishni talab qiladi, unda yoshlarni milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. SHuningdek, tegishli konsepsiyada 3-7 yoshli bolalar bosqichi (birinchi bosqich) uchun quyidagilar belgilangan: bu yoshda bolalarda "milliy an'analarga qiziqish", "o‘zini namoyon qilish va muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji" paydo bo‘ladi, bu davrda "she'r, ertak, kuy va qo‘shiqlar, sport va milliy o‘yinlar, teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari' orqali milliy g‘urur, vatanparvarlik va boshqa fazilatlarni shakllantirish zarur. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarda milliy o‘zlikni saqlash va mustahkamlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, ro‘lli o‘yinlarning milliy ruhdagi emotsional tarbiyadagi o‘rni yetarlicha tizimli o‘rganilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilk yosh davridayoq bolada ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar shakllanadi. Samarali pedagogik texnologiyalar va metodikalardan foydalanilsa , bolalarning har taraflama rivojlanishida sezilarli natijaga erishiladi. Lev Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko‘ra, bola egallashi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar uning mavjud hamda yashirin (potensial) salohiyati oralig‘ida namoyon bo‘ladi. Syujetli-ro‘lli o‘yinlari aynan shu zonada faoliyat yuritish imkonini beradi: bola kattalar yoxud tengdoshlari bilan hamkorlikda ijtimoiy rollarni bajarar ekan, o‘zining real imkoniyatlaridan biroz yuqoriroq darajada harakat qilishga intiladi. EEriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida ta'kidlanishicha maktabgacha bo‘lgan davri shaxsda "tashabbuskorlik"

sifatlarini shakllanish bosqichidir. Ushbu bosqichda bolada mustaqil tashabbus ko‘rsatish, faoliyatni rejalashtirish hamda ko‘zlangan natijaga erishish malakalari shakllanadi . O‘yin jarayoni,ayniqsa ro‘lli o‘yinlar vositasida bola o‘zini kattalar o‘rnida tasavvur qiladi, har xil ijtimoiy ro‘llarni sinab ko‘radi. Natijada unimg o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi,tashabbuskorlik va ijtimoiy moslashuvni shakllantiriladi.

Yurtimiz tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda ham milliy qadriyatlarga tayanib tarbiya berishda o‘yinlarning o‘rni alohida e’tirof etiladi. Masalan, M.Q. Jabborova hamda G.I. Meliboyevalarning o‘z ilmiy izlanishlarida zamonaviy interfaol metodlar va texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Qolaversa, katta maktabgacha yoshdagi bolalarga ma’naviy-axloqiy tarbiya berishda xalq o‘yinlar, og‘zaki ijod namunalari (ertaklar, maqollar) va dramalashtirishlardan foydalanish yuqori natija berishi ko‘rsatib o‘tilgan. Biroq, milliy ruhdagi emotsional tarbiyada syujetli-ro‘lli o‘yinlarning o‘ziga xosligi shundaki, rolli o‘yinlarning amaliy mexanizmlari – milliy qahramon obrazini gavdalantirish, milliy muloqot odobini o‘yin vaziyatida qo‘llash, millatlararo bag‘rikenglikni shakllantirish masalalari yetarlicha ilmiy asoslab berilmagan.

Mazkur ilmiy ishda nazariy tahlil va qiyosiy o‘rganish metodlariga asoslandi. Xususan, sohaga oid pedagogik va psixologik adabiyotlar, ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan metodik qo‘llanmalar tahlil qilindi. Bunda birinchi o‘rinda, syujetli-ro‘lli o‘yinlarning milliy qadriyatlarni o‘zlashtirishdagi funksiyasi, ro‘llarni taqsimlash tartib-qoidalari va o‘yin jarayonida emotsional kechinmalarni boshqarish nexanizmlari tadqiq etildi. O‘yin faoliyati va sahnalashtirilgan dramatik mashqlar bolalarga xilma-xil ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishni o‘rgatadi; o‘z navbatida, bu jarayon hamkorlik qilish, o‘zaro munosabat hamda empatiya mexanizmlarini yanada mustahkamlaydi. SHuningdek, ta’limiy-tarbiyaviy jarayonda foydalaniladigan quyidagi syujetli-ro‘lli va amaliy o‘yinlar bolalarda milliy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

“Mehmon kutish” o‘yini: mehmondo‘stlik, samimiyat, hurmat kabi milliy qadriyatlarni hissiy jihatdan boshdan kechirish.

“Do‘stlik daraxti’ o‘yini: bolalar rangli barglarga ismlarini yozib, do‘stlik daraxtiga yopishtiradilar, ramziy ma’no orqali jamoaviy ongni mustahkamlaydilar .

“Kasbiy rol o‘yini” ("Dorixona", "SHifokor oldida" va boshqalar): milliy odob-axloq normalarini (navbat, minnatdorchilik, muloyim so‘zlash) o‘yin orqali amalda qo‘llash .

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari ro‘lli o‘yinlarning milliy ruhdagi emotsional tarbiyada bir necha muhim funksiyasini aniqlash imkonini berdi.

Birinchi funksiya – milliy an’ana va qadriyatlarni hissiy qabul qilish. Rol o‘yinlarining eng katta ustunligi shundaki, ular bolalarga ertak, doston hamda milliy syujetlardagi vaziyatlarni sahnada gavdalashtirish imkonini beradi. Ushbu jarayonda bolalar shunchaki kuzatuvchi ro‘lida qolmay, balki voqealarda hissiy jihatdan faol qatnashadi va qahramonning ichki kechinmalarini, hayotiy tajribalarini o‘z boshidan o‘tkazadilar. Masalan, “Kim bo‘lishni xohlaysan?” o‘yinida har bir bola turli millat vakilini tasvirlaydi: “Men o‘zbekman”, “Men qoraqalpoqlik do‘stman va men tojik o‘g‘loniman” kabi . Bunday yondashuv bolada bir vaqtning o‘zida o‘z milliy o‘zligini his qilish hamda boshqa xalqlarga hurmat va bag‘rikenglik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi funksiya – ro‘llarni individual xususiyatlarga mos taqsimlash orqali tarbiyaviy samaradorlikni oshirish. Ilmiy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ro‘llarni bo‘lish jarayonida pedagog har bir tarbiyalanuvchining xarakteri, jismoniy va ruhiy imkoniyatlari, hissiyotlarini aniq hisobga olishi lozim. Aynan shu tarzda tashkil etilgan yondashuvdagina o‘yin bolalarning shaxsiy sifatlari va qiziqishlarini shakllantirishga haqiqiy hissa qo‘sha oladi. Mazkur tamoyil milliy ruhdagi emotsional tarbiyada o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi,

chunki har bir bolaning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati individual tarzda shakllanadi.

Uchinchi funksiya – emotsional boshqaruv hamda empatiya ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ro‘lli o‘yinlar bolaning o‘z hissiyotlarni ongli ravishda tartibga solish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘yin jarayonida bola “g‘azablanish”, “xafa bo‘lish” kabi murakkab holatlarni boshdan kechirar ekan, ularga qanday munosabat bildirish lozimligini o‘rganib boradi. Pedagog “Agar g‘azablansang, nima qilasan?”, “O‘rtog‘ing bilan kelishmovchilik yuzaga kelsa, qanday yo‘l tutasan?” kabi savollar orqali bolani hissiyotlarini mustaqi boshqarishga yo‘naltiradi . Bu milliy ruhdagi tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lib, muloyimlik, sabr-toqat va hurmat kabi an’anaviy qadriyatlar o‘yin ichidagi xatti-harakat odati sifatida mustahkamlanadi.

To‘rtinchi funksiya – turli millat vakillari o‘rtasida bag‘rikenglik munosabatlarini shakllantirish. Masalan, “Do‘stlik daraxti” deb nomlangan tarbiyaviy o‘yinida bolalar turli rangli barglarga o‘z ismlarini yozib, daraxt shakliga yopishtiradilar va “O‘zbekiston xalqi – do‘stlik daraxti” deya nomlaydilar. Ushbu ramziy jarayon orqali bolalar ko‘p millatli yurtimizda ahil-inoq,hamjihatlikda hayot kechirish g‘oyasini o‘zlarining hissiy olami orqali chuqur anglab yetadilar. Muhokama qismida alohida e’tirof etish lozimki, ro‘lli o‘yinlar vositasida olib boriladigan milliy ruhdagi emotsional tarbiyadagi samaradorligi ko‘p jihatdan tarbiyachining tayyorgarligiga bog‘liq. Pedagog nafaqat o‘yin syujetini rejalashtirib qolmay, balki o‘yin jarayonida bolalarning hissiy holatini kuzatishi, kerak bo‘lganda ularni yo‘naltirishi va har bir bolaning o‘yin faoliyatidagi ishtirokini rag‘batlantirishi zarur. SHuningdek, milliy mentaliteti va qadriyatlarimizni o‘z ichiga olgan r’lli o‘yinlar bolaning nafaqat emotsional barqarorligini mustahkamlaydi, balki ularning ijtimoiy ko‘nikmlari, masalan hamkorlik qilish va muammolarni birgalikda yechish qobiliyatlarini rivojlantirdi.

XULOSA

Ro‘lli o‘yinlar bolalarda milliy ruhdagi emotsional hissiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Bolalar o‘yin orqali milliy qadriyatlarni chuqur his etadi, milliy qahramonlar obrazi orqali faxr va g‘urur tuyg‘ularini kechiradi, milliy muloqot odobini amalda qo‘llaydi. SHuningdek, ro‘lli o‘yinlar bolaning emotsional barqarorligini ta’minlash, o‘z hissiyotlarini boshqarish va ijtimoiy munosabatlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Milliy ertak, rivoyat va qadimiy urf-odatlarimizga asoslangan ro‘lli o‘yinlarni ta’lim jarayoniga keng tadbiq etish orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlari va boshlang‘ich maktablarida bolalarda milliy o‘zlik va vatanga muhabbat tuyg‘ularini mustahkamlashning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-19-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2026 yil 28 yanvardagi 34-sonli qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Jabborova M.Q., Meliboyeva G.I. Ta’limiy faoliyatlarda interfaol metod va texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini shakllantirish // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. – 2026. – №3. – B. 3–8.